



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

**“FIZIKA VA ASTRONOMIYA TA’LIMIDA ZAMONAVIY
METODIKALAR”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Fizika va astronomiya

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylarning pedagog xodimlari.

NUKUS-2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIIY TA‘LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

“TASTIYQLAYMAN”

Aymaqlıq orayı direktori
_____K.Ubaydullaev

“__”_____ 2026 j.

**“FIZIKA VA ASTRONOMIYA TA‘LIMIDA ZAMONAVIY
METODIKALAR”**

MODULI BO‘YICHA

O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Fizika va astronomiya

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylarning pedagog xodimlari.

Nukus-2026

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **f.m.f.d., professor B.Abdikamalov**

Taqrizchi: **t.f.d., professor M.Tagayev**

*O'quv uslubiy majmua Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan
(20__-yil “__” _____dagi __-sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....	9
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	13
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	31
V. KYEYSLAR BANKI.....	33
VI. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI.....	34
VII. GLOSSARIY.....	35
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	46

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning koinot to‘g‘risidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etish va baholash, yulduzlar evolyutsiyasi nazariyasini o‘zlashtirish, kompakt ob‘ektlar, qora tuynuklar, neytron yulduzlar va oq mittilarning kelib chiqishi va o‘zaro bog‘likligini yoritib berish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta‘minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi tinglovchilarni Fizika va astronomiya ta‘limida zamonaviy metodikalarni o‘qitishda hamda ta‘lim sohasida qo‘llanilish imkoniyatlaridan keng foydalanish, dars jarayonida kam e‘tibor qaratiladigan masalalarini tahlil qilish va muammolarini hal etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o‘qitish sifati va samaradorligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

“Fizika va astronomiya ta'limida zamonaviy metodikalar” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- fizika va astronomiyani o'qitishda o'quvchi markazidagi ta'lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni;
- astrofizikada raqamli texnologiyalar: simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalarni;
- fizika va astronomiya fanlarini o'qitishda zamonaviy testlar topshiriqlari va raqamli resurslarni;
- koinotning yirik masshtabdagi strukturasi va zamonaviy astronomik kuzatuvlarni;
- fizika va astronomiya fanlarini o'qitishda zamonaviy testlar va raqamli resurslarni;
- yangi yulduzlarning tug'ilishi va yulduzlararo muhitni PBL asosida o'rganishni *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- yulduzlar evolyutsiyasini amaliy mashg'ulotlar va modellashtirish asosida o'qitish;
- gallaktikalarning koinotda taqsimlanishi haqida tushunchalarni shakllantirish;
- Project-Based Learning asosida astrofizik tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish;
- analyze–Evaluate–Create bosqichlarida kosmik hodisalarni tahlil qilish;
- fizika va astronomiya ta'limida zamonaviy metodikalardan samarali foydalanish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- astrofizika ta'limida baholash tizimlari va test topshiriqlarini ishlab chiqishni baholash;
- Bloom taksonomiyasi asosida astrofizik masalalarda yuqori darajali fikrlashni rivojlantirish;
- mexanika, molekulyar fizika va termodinamika, elektrodinamika, optika, atom va yadro fizikasi test topshiriqlarini yechish va masalalarini tahlil qilish;

- STEM/STEAM yondashuvi orqali astrofizika va kosmik texnologiyalar integratsiyasini o‘rganish va tahlil qilish;
- kvazarlar, pulsarlar va magnitarlar orqali mavhum astrofizik ob’yektlarni o‘qitish metodikasidan foydalanish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

**“Fizika va astronomiya ta’limida zamonaviy metodikalar” moduli
bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1	Fizika va astronomiyani o‘qitishda o‘quvchi markazidagi ta’lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	2	2	2	
2	Project-Based Learning asosida astrofizik tadqiqot loyihalarini tashkil etish	2	2	2	
3	Yulduzlar evolyutsiyasini amaliy mashg‘ulotlar va modellashtirish asosida o‘qitish	2	2		2
4	Fizika va astronomiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy testlar topshiriqlari va raqamli resurslar.	2	2		2
5	Koinotning yirik masshtabdagi strukturasi va zamonaviy astronomik kuzatuv metodlari.	2	2		2
Jami:		10	10	4	6

NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Fizika va astronomiyani o‘qitishda o‘quvchi markazidagi ta’lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlar. (2 soat).

1.1. Fizika va astronomiyani o‘qitishda o‘quvchi markazidagi ta’lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlar.

1.2. Mexanika, molekulyar fizika va termodinamika, elektrodinamika, optika, atom va yadro fizikasi test topshiriqlarini yechish va masalalarini tahlil qilish.

1.3. Muammoli ta’lim orqali koinot va kosmik obyektlar fizikasi masalalarini tahlil qilish metodikalari.

2-mavzu: Project-Based Learning asosida astrofizik tadqiqot loyihalarini tashkil etish (2 soat).

2.1. Project-Based Learning asosida astrofizik tadqiqot loyihalarini tashkil etish. STEM/STEAM yondashuvi orqali astrofizika va kosmik texnologiyalar integratsiyasi.

2.2. Bloom taksonomiyasi asosida astrofizik masalalarda yuqori darajali fikrlashni rivojlantirish.

2.3. Analyze–Evaluate–Create bosqichlarida kosmik hodisalarni tahlil qilish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Yulduzlar evolyutsiyasini amaliy mashg‘ulotlar va modellashtirish asosida o‘qitish (2 soat).

1.1. Yulduzlar evolyutsiyasini amaliy mashg‘ulotlar va modellashtirish asosida o‘qitish.

1.2 Astrofizikada raqamli texnologiyalar: simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar.

2- amaliy mashg‘ulot: Fizika va astronomiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy testlar topshiriqlari va raqamli resurslar.

2.1. Fizika va astronomiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy testlar topshiriqlari va raqamli resurslar.

2.2. Astrofizika ta’limida baholash tizimlari va test topshiriqlarini ishlab chiqish.

2.3. Kvazarlar, pulsarlar va magnitarlar orqali mavhum astrofizik ob’yektlarni o‘qitish metodikasi.

3- amaliy mashg‘ulot: Koinotning yirik masshtabdagi strukturasi va zamonaviy astronomik kuzatuv metodlari.

3.1. Koinotning yirik masshtabdagi strukturasi va zamonaviy astronomik kuzatuv metodlari.

3.2. Gallaktikalarning Koinotda taqsimlanishi haqida tushunchalarga ega bo‘lish.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

“Fizika va astronomiya ta’limida zamonaviy metodikalar” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma’ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;

- o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so’rovlar, test so’rovlari va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo’llash nazarda tutiladi.

II. MODULNI O’QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo’llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to’siqlar

Namuna: Koinotni katta portlash natijasida yaratilishi, inflyatsiya jarayoni. Fundamental o’zaro ta’sirlar SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Koinotni katta portlash natijasida yaratilishi, inflyatsiya jarayoni. Fundamental o’zaro ta’sirlarfoydalanishning kuchli tomonlari	Ushbu nazariya yordamida koinotning rivojlanishini 4 ta fundamental o’zaro ta’sir kuchlari yordamida tushuntiriladi.
----------	--	--

W	Koinotni katta portlash natijasida yaratilishi, inflyatsiya jarayoni. Fundamental o‘zaro ta’sirlar foydalanishning kuchsiz tomonlari	Xozirigi paytda eksperimentda tekshirish imkoniyati yo‘q.
O	Koinotni katta portlash natijasida yaratilishi, inflyatsiya jarayoni. Fundamental o‘zaro ta’sirlar foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Fizikaning qonunlarini o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.
T	To‘siqlar (tashqi)	Nazariyaning matematik apparati murakkab.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



- **Test**
- 1. Kuchsiz o‘zaro ta’sirni tashuvchi zarralarni ko‘rsating.
- A. W-бозон
- B. фотон
- C. глюон



- **Qiyosiy tahlil**
- Fundamental o‘zaro ta’sir kuchlarini taqqoslang



- **Tushuncha tahlili**
- W -bozon tushunchasini izohlang...
-




- **Amaliy ko‘nikma**
- Zarrachaning energiyasini xisoblang
-

“Davra suhbatı” metodi

Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilartomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.


“Davra suhbatı” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatidata’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi vaaylana bo‘ylab har birta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



- Belgilar:**
- 1-ta’lim oluvchilar
 - 2-aylana stol

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklidajoylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan.



- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Fizika va astronomiyani o‘qitishda o‘quvchi markazidagi ta’lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlar. (2 soat).

1.1. Fizika va astronomiyani o‘qitishda o‘quvchi markazidagi ta’lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlar.

1.2. Mexanika, molekulyar fizika va termodinamika, elektrodinamika, optika, atom va yadro fizikasi test topshiriqlarini yechish va masalalarini tahlil qilish.

1.3. Muammoli ta’lim orqali koinot va kosmik obyektlar fizikasi masalalarini tahlil qilish metodikalari.

Tayanch iboralar: O‘quvchi markazidagi ta’lim, konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta’lim, faol o‘qitish metodlari, refleksiya, kritik fikrlash, integrativ yondashuv, fanlararo bog‘liqlik, ilmiy tafakkur, STEM/STEAM, loyiha asosida o‘qitish, formatif baholash, tahliliy masala, kosmik obyektlar fizikasi.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida fizika va astronomiya fanlarini o‘qitish jarayoni endilikda faqat tayyor bilimlarni yetkazish bilan cheklanib qolmaydi. Asosiy maqsad — o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, muammoni tahlil qila oladigan, ilmiy xulosalar chiqarishga qodir shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchi markazidagi ta’lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bugungi fizika va astronomiya ta’limining metodologik asosi hisoblanadi.

Mazkur darsda:

- o‘quvchi markazidagi ta’limning nazariy asoslari,
- fizikaning turli bo‘limlari bo‘yicha test va masalalarni tahlil qilish metodikasi,
- koinot va kosmik obyektlar fizikasi masalalarini muammoli ta’lim orqali o‘rganish usullari ketma-ket va uzviy yoritiladi.

1.1. Fizika va astronomiyani o‘qitishda o‘quvchi markazidagi ta’lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlar

Fizika va astronomiya o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining maqsaditalabalarga umumta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida fizika va astronomiya fanlarini o‘qitish metodlarini, bu fan bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmaga erishishning eng samarali va optimal yo‘llarini o‘rgatishdan iborat. Bu kurs umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining fizika va astronomiya fanlaridan o‘quv dasturi bilan ishlash, uni tahlil qilish, kurs mazmunini soatlar bo‘yicha taqsimlash hamda o‘qitish bo‘yicha metodik yo‘l-yo‘riqlardan talabalarni ogoh etadi.

Darsning turli shakllarini sharoitga qarab tashkil etish, talabalarni fan asoslariga qiziqtirish bo'yicha ham to'g'ri yo'l ko'rsatib, ularga darsni faollashtirishning turli metodik yondashuvlaridan foydalanish bo'yicha bir qator ijobiy maslahatlar beradi. Talabalarning darsda, darsdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etish, darsdan tashqari ishlarni (to'garaklar, olimpiadalar, ekskursiyalar, kechalar va konferensiyalar) o'tkazish bo'yicha aniq ko'rsatmalar beradi. Shuningdek, fizik va astronomik ta'limning estetik, ekologik aspektlari hamda metodologik asoslari haqida mukammal ma'lumot beradi. «Fizika va astronomiya o'qitish nazariyasi va metodikasi» fanining vazifasi — fizika va astronomiya o'qituvchilari tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari talabalariga fizika va astronomiya o'qitish nazariyasi va metodikasi fanining zamonaviy mazmuni haqidagi bilimlarni berishdan, ta'lim jarayonida fizika va astronomiya fani asoslarini o'qitishning ilg'or tajribalari bilan nazariyasi hamda metodikasi fani uning barcha bo'limlari: pedagogika, psixologiya, nazariy fizika, astronomiya, astrofizika bilan o'zaro bog'liq hamda oliy matematika, informatika va axborot texnologiyalari, biologiya, geografiya kabi tabiiy-ilmiy fanlar bilan uzviy bog'langan, shuningdek, talabaning ushbu



fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.


Zamonaviy ta'lim tizimida fizika va astronomiya fanlarini o'qitish mazmuni va metodikasiga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Ilgari dars jarayonida asosiy e'tibor o'qituvchining tushuntirishiga, tayyor bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda ta'lim jarayonining markazida o'quvchi shaxsi, uning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy dunyoqarashi turadi. Shu sababli o'quvchi markazidagi ta'lim konsepsiyasi fizika va astronomiyani o'qitishda yetakchi metodologik asos sifatida qaralmoqda.

O'quvchi markazidagi ta'lim deganda, o'quvchining faqat bilim oluvchi emas, balki bilimni faol ravishda shakllantiruvchi subyekt sifatida ishtirok etishi tushuniladi. Fizika va astronomiya kabi murakkab va abstrakt fanlarda bu yondashuv ayniqsa muhimdir, chunki mazkur fanlar nafaqat formulalar va qonunlar majmui, balki tabiat hodisalarini tushunish, tahlil qilish va izohlashga qaratilgan ilmiy tafakkurni talab etadi. O'quvchi markazidagi ta'limda o'qituvchi tayyor bilimni

emas,

beruvchi

balki



o'quvchini izlanishga yo'naltiruvchi, savollar beruvchi, muammo yaratib beruvchi va bilimni mustaqil egallashiga sharoit yaratuvchi rolini bajaradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning nazariy asosida konstruktivizm yotadi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilim inson ongida tashqi axborotni qabul qilish orqali emas, balki faol aqliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Fizika darslarida bu shuni anglatadiki, o'quvchi Nyuton qonunlarini yoki elektromagnit hodisalarini shunchaki yodlab olmaydi, balki ularni real tajribalar, hayotiy vaziyatlar va muammoli savollar orqali anglaydi. Astronomiya fanida esa koinot hodisalarini, yulduzlar evolyutsiyasi yoki sayyoralarning harakati o'quvchining kuzatuv, tahlil va mantiqiy xulosalari orqali tushuntiriladi.

Kompetensiyaviy yondashuv ham zamonaviy fizika va astronomiya ta'limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu yondashuv bilimning o'zi emas, balki undan foydalanish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Fizika va astronomiya darslarida kompetensiyalar masalalar yechish, grafiklarni tahlil qilish, tajriba natijalarini izohlash, ilmiy xulosalar chiqarish orqali rivojlantiriladi. O'quvchi bilimni qayerda va qanday qo'llashni anglaganida, ta'lim jarayoni samarali bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar doirasida faol o'qitish metodlari ham muhim o'rin tutadi. Faol metodlar o'quvchini passiv tinglovchi holatidan chiqarib, uni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Fizika va astronomiya darslarida muhokama, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, loyihaviy faoliyat,

muammoli vaziyatlar yaratish kabi metodlar o'quvchining mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Shuningdek, zamonaviy ta'limda fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Fizika va astronomiya matematika, informatika, texnologiya va geografiya fanlari bilan uzviy bog'liq holda o'qitilishi lozim. Masalan, orbital harakatni tushuntirishda matematik modellar, kompyuter simulyatsiyalari va fizik qonunlar birgalikda qo'llanilganda o'quvchining bilimlari chuqurroq va barqarorroq shakllanadi.

Fizika va astronomiya fanlari tabiat hodisalari va ularning qonuniyatlarini o'rganuvchi asosiy tabiiy fanlar bo'lib, ular o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur fanlarni o'qitishda an'anaviy yondashuv uzoq vaqt davomida ustun bo'lib kelgan bo'lsa-da, jamiyat taraqqiyoti, fan va texnika yutuqlari ta'lim jarayoniga yangicha talablarni qo'yimoqda. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida fizika va astronomiyani o'qitish jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirish, uning bilish faolligini oshirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

O'quvchi markazidagi ta'lim konsepsiyasi fizika va astronomiya o'qitish metodikasining zamonaviy rivojlanish bosqichida muhim metodologik asos sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvda o'quvchi bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni faol ravishda egallovchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo'llovchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Kitobda ta'kidlanganidek, fizika va astronomiya o'qitish jarayoni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning uzviy birligini ta'minlashi lozim bo'lib, bu jarayonda o'quvchining intellektual salohiyati va qiziqishlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan fizika va astronomiya darslarida konstruktivistik ta'lim g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Konstruktivizmga ko'ra, bilim o'quvchining shaxsiy tajribasi va faol aqliy faoliyati natijasida shakllanadi. Fizika darslarida bu yondashuv hodisalarni kuzatish, tajribalar o'tkazish, masalalarni tahlil qilish va muammoli vaziyatlar yaratish orqali amalga oshiriladi. Astronomiyada esa osmon jismlarining harakati, yulduzlar evolyutsiyasi yoki koinot tuzilishini muhokama qilish orqali o'quvchilarda ilmiy fikrlash rivojlantiriladi.

Mazkur qo'llanmada fizika va astronomiya o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish alohida ta'kidlanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar va modellashtirish vositalari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Bunday vositalar yordamida murakkab fizik jarayonlar va astronomik hodisalarni vizual tarzda ko'rsatish imkoniyati yaratiladi, bu esa o'quvchilarning tushunishini yengillashtiradi

O'quvchi markazidagi ta'limning muhim jihatlaridan biri — bu muammoli o'qitishdir. Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchilar oldiga ilmiy savollar va masalalar qo'yilib, ulardan mustaqil yechim izlash talab etiladi. Fizika va astronomiyada bunday yondashuv ayniqsa samarali bo'lib, u o'quvchilarda sabab-oqibat aloqalarini tushunish, gipoteza ilgari surish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, mexanikada harakat sabablarini tahlil qilish yoki astronomiyada sayyoralar orbitasining barqarorligi haqida muammo qo'yish orqali o'quvchilarning ilmiy tafakkuri shakllanadi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy fizika va astronomiya ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv bilim, ko'nikma va malakalarning uzviy birligini ta'minlashga qaratilgan. O'quvchi faqat nazariy bilimga ega bo'lib qolmasdan, uni amaliyotda qo'llashni ham o'rganadi. Masala yechish, tajribalar o'tkazish, grafik va diagrammalarni tahlil qilish kompetensiyalarni shakllantirishning muhim vositalari sifatida qaraladi.

1.2. Mexanika, molekulyar fizika va termodinamika, elektrodinamika, optika, atom va yadro fizikasi test topshiriqlarini yechish va masalalarini tahlil qilish

Fizika fanini o'qitish jarayonida test topshiriqlari va masalalar yechish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda markaziy o'rin egallaydi. Djorayev va Sattarova tomonidan ta'kidlanganidek, fizika masalalari o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki fizik hodisalarning mohiyatini ongli ravishda tushunish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Shu sababli masala yechish jarayoni faqat nazorat vositasi emas, balki mustaqil o'qitish metodi sifatida qaraladi.

Fizika fanini o'qitish jarayonida test topshiriqlari va masalalar yechish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda markaziy o'rin egallaydi. Djorayev va Sattarova tomonidan ta'kidlanganidek, fizika masalalari o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki fizik hodisalarning mohiyatini ongli ravishda tushunish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Shu sababli masala yechish jarayoni faqat nazorat vositasi emas, balki mustaqil o'qitish metodi sifatida qaraladi.

Mexanika bo'limiga oid test va masalalar fizika kursining poydevorini tashkil etadi. Kitobda qayd etilishicha, mexanika masalalarini yechishda asosiy e'tibor harakatning fizik modelini to'g'ri tanlashga qaratilishi lozim. O'quvchi berilgan shartni tahlil qilib, real jarayonni soddalashtirishi, kuchlar ta'sirini aniqlashi va asosiy qonunlarni ongli ravishda qo'llashi kerak. Bu jarayonda formulalarni yoddan qo'llash emas, balki ularning qaysi fizik hodisani ifodalashini tushunish muhim hisoblanadi. Mexanika masalalari o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni, harakat sabablarini tahlil qilishni va natijaning fizik ma'nosini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Molekulyar fizika va termodinamika bo'limlarida masalalar moddaning tuzilishi va energiya almashinuvi jarayonlarini ochib beradi. Kitobda ta'kidlanishicha, ushbu bo'limdagi masalalar o'quvchilar uchun murakkab bo'lib ko'rinsa-da, ular orqali mikrojarayonlar bilan makrohodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash mumkin bo'ladi. Termodinamik masalalarni tahlil qilishda jarayonning qaysi sharoitda kechayotganini aniqlash, holat kattaliklarining o'zgarishini tushunish va grafiklardan to'g'ri foydalanish muhim didaktik ahamiyatga ega. Bunday masalalar o'quvchilarda energiya saqlanish qonunining universalligini tushunishga xizmat qiladi.

Elektrodinamika bo'limida test topshiriqlari va masalalar elektr va magnit hodisalarning murakkabligi bilan ajralib turadi. Djorayev va Sattarova elektrodinamika masalalarini yechishda maydon tushunchasini to'g'ri shakllantirish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Elektr va magnit maydonlarning vektor tabiatini anglash, superpozitsiya prinsipini tushunish va fizik kattaliklar orasidagi bog'lanishni aniqlash bu bo'limdagi masalalarning asosiy metodik vazifasidir. Elektrodinamika masalalari o'quvchilarning abstrakt fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, matematik apparatdan ongli foydalanishga o'rgatadi.


Optika bo'limida masalalar va test topshiriqlari yorug'lik hodisalarini tushunishga qaratilgan. Kitobda ko'rgazmalilik prinsipining aynan optika bo'limida juda muhimligi qayd etilgan. Yorug'likning aks ettirilishi, sinishi, interferensiya va difraksiya hodisalarini chizmalar va sxemalar orqali tahlil qilish o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantiradi. Optik masalalar o'quvchilarni fizik hodisalarni geometrik va to'lqin nuqtayi nazaridan birgalikda ko'rib chiqishga o'rgatadi.

Atom va yadro fizikasi bo'limiga oid masalalar zamonaviy fizikaning ilmiy asoslarini o'quvchilarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bo'limdagi test topshiriqlari va masalalar kvant hodisalar, energiya sathlari, radioaktiv yemirilish jarayonlari va yadro reaksiyalarini tushuntirishga xizmat qiladi. Kitobda atom va yadro fizikasi masalalari orqali o'quvchilarda zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, tabiat hodisalarini ehtimollik va energetik yondashuv asosida izohlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

1.3. Muammoli ta'lim orqali koinot va kosmik obyektlar fizikasi masalalarini tahlil qilish metodikalari


Zamonaviy fizika va astronomiya ta'limida koinot va kosmik obyektlar fizikasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yulduzlar, sayyoralar, galaktikalar, qora tuynuklar, neytron yulduzlar va gravitatsion to'lqinlar kabi obyektlar nafaqat fan-texnika taraqqiyotining eng yuqori bosqichini ifodalaydi, balki o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, falsafiy tafakkur va tasavvurni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ushbu mavzularni o'qitishda an'anaviy, tayyor bilimlarni

berishga asoslangan yondashuv yetarli bo'lmay, muammoli ta'lim metodlariga ehtiyoj tug'iladi.




Muammoli ta'lim fizika va astronomiyani o'qitishda o'quvchini ilmiy izlanishga jalb qiluvchi, bilimni tayyor shaklda emas, balki muammo orqali egallashga yo'naltiruvchi samarali pedagogik yondashuvdir. Djorayev va Sattarova ta'kidlaganidek, muammoli ta'limda o'qituvchi tayyor javobni bermaydi, balki o'quvchini savol qo'yishga, gipoteza ilgari surishga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga undaydi. Ayniqsa, koinot va kosmik obyektlar fizikasi kabi murakkab va mavhum mavzular muammoli ta'lim uchun juda qulay pedagogik maydon hisoblanadi.

Koinot hodisalari inson tajribasidan bevosita tashqarida joylashganligi sababli, ularni tushuntirishda oddiy ta'riflar va formulalar yetarli emas. Masalan, "Nima uchun yulduzlar qulamaydi?", "Qora tuynuk qanday qilib yorug'likni ham o'ziga tortadi?", "Gravitatsiya kuch emas, balki fazo-vaqt egriligi bo'lsa, jismlar nega harakat qiladi?" kabi savollar o'quvchini tayyor bilimdan ko'ra, muammo ustida fikrlashga majbur qiladi. Rezzolla o'z asarida aynan shu jihatni alohida ta'kidlab, gravitatsiyaning instinktiv, mantiqiy va tasavvuriy darajalarda anglanishini ko'rsatadi. Bu esa muammoli ta'limning kognitiv asoslari bilan to'liq mos keladi.




Muammoli ta'lim orqali kosmik obyektlar fizikasi masalalarini tahlil qilish metodikasida birinchi bosqich — muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga oddiy fakt emas, balki tushuntirish talab qiladigan holatni taqdim etadi. Masalan, Yer yuzasida barcha jismlar bir xil tezlanish bilan tushishini

bilgan o'quvchiga "Nega Oyda yurish qiyin, ammo jismlar sekin tushadi?" degan savol beriladi. Ushbu savol o'quvchini tortishish tezlanishining makon va massa bilan bog'liqligi haqida o'ylashga undaydi.




Ikkinchi bosqich gipoteza ilgari surishdan iborat bo'lib, bunda o'quvchilar o'z bilimlariga tayangan holda ehtimoliy izohlar taklif qiladilar. Bu jarayonda xatolarga yo'l qo'yilishi tabiiy bo'lib, muammoli ta'limning muhim afzalligi ham aynan shunda namoyon bo'ladi. O'quvchi noto'g'ri fikrlashi mumkin, biroq aynan shu xato keyingi ilmiy tahlil uchun zarur poydevor vazifasini bajaradi. Rezzolla asarida Newton gravitatsiyasining uzoq vaqt mutlaq haqiqat sifatida qabul qilingani, ammo Merkuriy perigeliyining siljishi muammosi bu nazariyani qayta ko'rib chiqishga majbur qilgani misolida bu jarayon yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holatni darsda muammoli vaziyat sifatida qo'llash mumkin.



Uchinchi bosqich — nazariy tahlil va ilmiy asoslash bo'lib, bunda o'quvchilar mavjud fizik qonunlar va modellar yordamida o'z gipotezalarini tekshiradilar. Koinot va kosmik obyektlar fizikasi masalalarida bu bosqich juda muhim, chunki u o'quvchilarni klassik fizika bilan zamonaviy fizika o'rtasidagi farqni anglashga olib keladi. Masalan, Newton gravitatsiyasi yordamida orbital harakat tushuntiriladi, biroq qora tuynuklar yoki gravitatsion to'lqinlar masalasida umumiy nisbiylik nazariyasiga murojaat qilish zarur bo'ladi. Shu orqali o'quvchi ilmiy nazariyalarning chegaralanganligini tushunadi.

Muammoli ta'lim metodikasining muhim jihati shundaki, u koinot fizikasi masalalarini faqat hisoblash darajasida emas, balki konseptual tahlil darajasida


o‘rganishga imkon beradi. Masalan, qora tuynukdan yorug‘lik chiqmasligi faktini oddiygina “qochish tezligi yorug‘lik tezligidan katta” degan jumla bilan cheklab qo‘yish o‘rniga, fazo-vaqt egriligi tushunchasi orqali izohlash o‘quvchining tafakkurini chuqurlashtiradi. Rezzolla ta’kidlaganidek, gravitatsiya kuch sifatida emas, balki fazo-vaqtning geometriyasi sifatida tushunilganda, kosmik obyektlar fizikasi yanada mantiqiy va izchil ko‘rinish oladi.



Koinot fizikasi masalalarini muammoli ta’lim orqali tahlil qilish o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ilmiy tafakkur, tanqidiy yondashuv va tasavvuriy fikrlashni rivojlantiradi. Bu fanlarning asosiy maqsadi ham aynan shundan iborat.

Muammoli ta’limda muhim metodik yondashuvlardan yana biri — savolni to‘g‘ri qo‘yishdir. Koinot va kosmik obyektlar fizikasi bo‘yicha savollar oddiy “nima?” yoki “qanday?” shaklida emas, balki “nega?” va “agar ... bo‘lsa, nima bo‘ladi?” ko‘rinishida berilishi maqsadga muvofiq. Masalan, “Agar Quyosh massasi ikki baravar katta bo‘lsa, Yer orbitasi qanday o‘zgaradi?” degan savol o‘quvchini tortishish qonunlari, orbital mexanika va energetik muvozanat haqida kompleks fikrlashga undaydi.

Bunday savollar asosida masalalar tahlil qilinganda, o‘quvchilar matematik hisoblash bilan cheklanib qolmay, fizik mazmuni chuqur anglaydilar. Bu esa muammoli ta’limning asosiy didaktik yutug‘i hisoblanadi. O‘quvchi masalani yechish jarayonida o‘zini tadqiqotchi sifatida his qiladi, bu esa motivatsiyani oshiradi.



Xulosa qilib aytganda, muammoli ta'lim orqali koinot va kosmik obyektlar fizikasi masalalarini tahlil qilish metodikasi zamonaviy fizika va astronomiya ta'limining eng samarali yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv o'quvchilarga koinotni nafaqat tayyor bilimlar majmui sifatida, balki ochiq savollar va ilmiy izlanishlar maydoni sifatida ko'rish imkonini beradi. Natijada, fizika va astronomiya fanlari o'quvchining tafakkurini rivojlantiruvchi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi kuchli vositaga aylanadi.

Nazorat savollari:

- 1) O'quvchi markazidagi ta'lim nimani anglatadi?
- 2) Konstruktivistik yondashuvning asosiy g'oyalari qanday?
- 3) Fizika ta'limida kompetensiyaviy yondashuvning o'rni
- 4) Faol o'qitish metodlariga misollar keltiring
- 5) Mexanika masalalarini tahlil qilish bosqichlari
- 6) Termodinamik jarayonlarni grafik orqali tahlil qilish
- 7) Elektrodinamika masalalarida vektor tushunchasi
- 8) Optik hodisalarning fizik mohiyati
- 9) Atom fizikasida kvant tushunchasi
- 10) Yadro fizikasi masalalarining didaktik ahamiyati
- 11) Muammoli ta'lim mohiyati
- 12) Astronomiyada muammoli savollarni qo'llash
- 13) Kosmik obyektlar fizikasi nimani o'rganadi?
- 14) Fanlararo integratsiyaning ahamiyati
- 15) Formatf baholash nima?
- 16) Refleksiya ta'limda nima uchun muhim?
- 17) Fizika darsida loyiha asosida o'qitish
- 18) O'quvchi markazidagi ta'limning afzalliklari

Foydalanilgan adabiyotlar


1. Abdurahmonov X. Fizika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 280 b.
2. Jo‘rayev S., Qosimov M. Kasb-hunar ta’limida tabiiy fanlarni o‘qitish usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 315 b.
3. Karimov S. Oliy ta’lim tizimida fizika fanini o‘qitish masalalari // Ta’lim innovatsiyalari ilmiy jurnali. – 2020. – №4. – B. 45–52.
4. Murodov A., Norboyev Sh. Fizika darslarida interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi // O‘zMU ilmiy axborotnomasi. – 2018. – №2. – B. 88–94.
5. Qodirov N., Xolmatov D. Astronomiyani o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar // O‘zbekistan fanlar akademiyasi axborotnomasi. – 2019. – №1. – B. 102–110.
6. Sodiqov B. Fizika fanini o‘qitishda eksperiment va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2017. – 250 b.
7. Turg‘unov A. Kasb-hunar kollejlari uchun fizika darsliklarini takomillashtirish tamoyillari // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2021. – №3. – B. 56–64.
8. Usmonov R. Fizika va astronomiya fanlarida loyihaviy ta’lim tamoyillari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 270 b.
9. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 167-168.
10. Minamatov, YU. (2021). UMNĬYE USTROYSTVA I PROTSESSĬ V IX PRAKTICHESKOY EKSPLUATATSII. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(9), 875-879.
11. Mamadalieva, L. K., & Minamatov, Y. E. (2021). High Efficiency of a Photoelectric Converter in a Combined Design with a Thermoelectric Converter. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 178-186.
12. G‘ofurovich, T. X. A., & Esonali o‘g‘li, M. Y. (2022). Computer Using Dynamic System Modelling Environments. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(2), 9-13.
13. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. *Scientific progress*, 3(4), 738-740.
14. Avazjon o‘g‘li, V. D., & Esonali o‘g‘li, M. Y. (2022). Prospects for the Development of the 3D Modeling Process. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 7, 78-79.

1. http://hea.iki.rssi.ru/HEAD_RUS/links_k.htm
2. <https://books.google.com/books?isbn=0226069710>
3. <https://books.google.com/books?isbn=0226724573>
4. [https:// nuclphys.sinp.msu.ru/](https://nuclphys.sinp.msu.ru/)

qiluvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. Astrofizika fanida bunday yondashuv ayniqsa muhim, chunki koinot hodisalari bevosita kuzatish imkoniyati cheklangan bo‘lib, ularni o‘rganish modellashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarishga asoslanadi. PBL doirasida o‘quvchilar yulduzlar evolyutsiyasi, galaktikalar tuzilishi, ekzosayyoralarining aniqlanishi, gravitatsion to‘lqinlar yoki kosmik apparatlar ishlash tamoyillari kabi mavzularda loyiha asosida ishlaydilar.

STEM/STEAM yondashuvi esa PBL asosidagi astrofizik loyihalarning mazmuniy va metodik poydevorini yanada mustahkamlaydi. STEM yondashuvi fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering) va matematika (Mathematics) fanlarini integratsiyalash orqali murakkab ilmiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, STEAM modeli ushbu tizimga san‘at (Art) va ijodiy fikrlash komponentini qo‘shadi. Astrofizika va kosmik texnologiyalar integratsiyasida bu yondashuv o‘quvchilarga ilmiy aniqlik bilan bir qatorda kreativ yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Astrofizik tadqiqot loyihalarini tashkil etishda STEM/STEAM yondashuvi o‘quvchilarning matematik modellashtirish, fizik qonunlarni qo‘llash, dasturlash, texnik dizayn va vizual taqdimot ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi. Masalan, sun‘iy yo‘ldosh orbitasini modellashtirish loyihasi doirasida o‘quvchi gravitatsiya qonunlarini (science), orbital hisob-kitoblarni (mathematics), kompyuter simulyatsiyasini (technology), konstruktsion yechimlarni (engineering) va loyiha natijalarini vizual taqdim etishni (art) uyg‘unlashtiradi.




PBL asosida tashkil etilgan astrofizik loyihalar o‘quvchilarda yuqori darajali fikrlashni shakllantiradi. O‘quvchilar muammoni aniqlash, ilmiy savol qo‘yish, ma’lumot to‘plash, tahlil qilish va yakuniy xulosa chiqarish jarayonlarida faol ishtirok etadilar. Bu esa ularni real ilmiy tadqiqot faoliyatiga yaqinlashtiradi va kelajakda ilmiy yoki muhandislik yo‘nalishida faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Project-Based Learning asosida astrofizik tadqiqot loyihalarini tashkil etish va STEM/STEAM yondashuvi orqali astrofizika hamda kosmik texnologiyalarni integratsiyalash zamonaviy ta'limning muhim strategik yo'nalishidir. Ushbu yondashuvlar orqali ta'lim jarayoni nazariy bilimlardan amaliy ilmiy faoliyatga yo'naltiriladi, o'quvchilarning ilmiy tafakkuri, tanqidiy va ijodiy fikrlashi izchil rivojlanadi hamda ularning global ilmiy-texnologik muammolarni hal etishga tayyorligi oshadi.

2.2. Bloom taksonomiyasi asosida astrofizik masalalarda yuqori darajali fikrlashni rivojlantirish

Zamonaviy fizika va astronomiya ta'limida asosiy maqsad o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularning ilmiy fikrlash qobiliyatini, murakkab hodisalarni tahlil qilish, baholash va yangi g'oyalar yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa, astrofizika kabi mavhum va murakkab hodisalarni o'rganuvchi fan sohasida yuqori darajali fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Bu jarayonda Bloom taksonomiyasi samarali didaktik model sifatida xizmat qiladi.

Bloom taksonomiyasi ta'lim maqsadlarini kognitiv murakkablik darajalariga ko'ra tizimlashtiruvchi nazariy model bo'lib, u dastlab Benjamin Bloom va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur taksonomiya o'quvchilarning bilish faoliyatini quyi darajadagi kognitiv amallardan boshlab, yuqori darajadagi intellektual faoliyatgacha izchil rivojlantirishni nazarda tutadi. Ilmiy manbada ta'kidlanganidek, Bloom taksonomiyasi kognitiv sohani oltita darajaga ajratadi: bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash; keyinchalik esa bu darajalar eslash, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratish shaklida yangicha talqin etilgan.



Astrofizik masalalarda yuqori darajali fikrlashni rivojlantirish aynan Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari — tahlil (Analyze), baholash (Evaluate) va yaratish (Create) bilan bevosita bog'liqdir. Quyi bosqichlarda o'quvchi astrofizik tushunchalarni eslab qoladi yoki tushunadi, biroq koinot hodisalarining chuqur

mohiyatini anglash faqat yuqori bosqichlarda yuzaga chiqadi. Masalan, yulduzlarning energiya manbai yoki galaktikalarning dinamikasi haqida fikr yuritishda oddiy ta'riflar yetarli bo'lmaydi; o'quvchi sabab–oqibat bog'lanishlarini tahlil qilishi, turli nazariy modellarni taqqoslashi va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishi talab etiladi.

Bloom taksonomiyasining tahlil darajasi astrofizik masalalarda alohida o'rin tutadi. Ushbu bosqichda o'quvchi murakkab kosmik hodisani tarkibiy qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi. Masalan, sayyoraning orbital harakatini tahlil qilishda tortishish kuchi, markazga intilma tezlanish, massa va masofa omillari alohida ko'rib chiqiladi va ularning o'zaro ta'siri tushuntiriladi. Ilmiy maqolada qayd etilishicha, tahlil darajasiga oid masalalar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi va ma'lumotlar bilan ongli ishlashga o'rgatadi.

Baholash bosqichida esa o'quvchi mavjud modellar yoki yechimlarni ma'lum mezonlar asosida baholaydi. Astrofizik masalalarda bu, masalan, klassik Nyuton gravitatsiya nazariyasi bilan umumiy nisbiylik nazariyasining qo'llanish chegaralarini taqqoslash orqali amalga oshiriladi. O'quvchi qaysi model qaysi sharoitda to'g'riroq natija berishini asoslab bera olishi lozim. Baholash darajasi o'quvchini ilmiy mulohaza yuritishga, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishga o'rgatadi, bu esa ilmiy tafakkurning muhim belgisi hisoblanadi.

Bloom taksonomiyasining eng yuqori bosqichi — yaratish (Create) — astrofizik ta'limda alohida pedagogik qiymatga ega. Bu bosqichda o'quvchi mavjud bilimlarni birlashtirib, yangi g'oya, model yoki yechim taklif qiladi. Masalan, berilgan shartlar asosida ekzoplanetaning ehtimoliy yashash zonasini aniqlash yoki yulduz evolyutsiyasining soddalashtirilgan modelini ishlab chiqish yaratish darajasiga oid faoliyatdir. Manbada qayd etilganidek, sintez va yaratish darajasidagi masalalar o'quvchilarda ijodkorlik va loyihalash qobiliyatini shakllantiradi .

Astrofizik masalalarni Bloom taksonomiyasi asosida tuzish va tahlil qilish o'qituvchidan ham puxta metodik yondashuvni talab etadi. Masala shartida qo'llaniladigan fe'llar va operatorlar kognitiv darajaga mos bo'lishi zarur. Masalan, “tushuntiring” yoki “hisoblang” kabi fe'llar quyi darajalarga mos bo'lsa, “tahlil qiling”, “taqqoslang”, “baholang” va “model yarating” kabi topshiriqlar yuqori darajali fikrlashni rag'batlantiradi. Ilmiy maqolada aynan shu jihat — topshiriqlarni kognitiv darajalarga mos shakllantirish — baholash va o'qitish samaradorligini oshirishi ta'kidlanadi .

Xulosa qilib aytganda, Bloom taksonomiyasi asosida astrofizik masalalarni tashkil etish o'quvchilarda yuqori darajali fikrlashni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar koinot hodisalarini faqat yodlash yoki tushunish darajasida emas, balki tahlil qilish, baholash va yangi ilmiy g'oyalar yaratish darajasida o'zlashtiradilar. Natijada, astrofizika fani

o‘quvchilar uchun murakkab formulalar majmui emas, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchli ta’lim vositasiga aylanadi.

2.3. Analyze–Evaluate–Create bosqichlarida kosmik hodisalarni tahlil qilish

Zamonaviy astrofizika va astronomiya ta’limida kosmik hodisalarni o‘rganish faqat tayyor faktlarni yodlash yoki formulalarni qo‘llash bilan cheklanib qolmasligi lozim. Koinot hodisalari o‘zining murakkabligi, ko‘p omilliligi va bevosita tajribaviy tekshirish imkoniyatining cheklanganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ularni o‘qitishda Bloom taksonomiyasining yuqori darajali kognitiv bosqichlari — Analyze (tahlil qilish), Evaluate (baholash) va Create (yaratish) bosqichlariga tayangan holda ishlash didaktik jihatdan eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Analyze bosqichi kosmik hodisalarni chuqur tushunishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, bunda o‘quvchi murakkab jarayonni tarkibiy qismlarga ajratadi va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlaydi. Masalan, yulduzlarning energiya manbaini tahlil qilishda o‘quvchi yadro sintezi jarayonlari, bosim va harorat muvozanati, gravitatsion siqilish va nurlanish mexanizmlarini alohida-alohida ko‘rib chiqadi. Bu bosqichda o‘quvchi “nima sodir bo‘lmoqda?” degan savoldan “bu hodisa qaysi fizik omillar natijasida yuzaga kelmoqda?” degan savolga o‘tadi. Kosmik hodisalarni tahlil qilish jarayonida grafiklar, sxemalar, simulyatsiyalar va modellar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular murakkab fazoviy va dinamik jarayonlarni tushunishni yengillashtiradi.



